

TABRIK

Poytaxtimizdagi “Renessans Hall” konsert zalida “Yangi O‘zbekiston yulduzlari” madaniyat va san’at milliy mukofoti g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu nufuzli tadbir doirasida madaniyat va san’at sohasida fidokorona mehnat qilib kelayotgan, yuksak ijodiy natijalarga erishgan ijodkorlar va soha vakillari munosib e‘tirof etildi.

Mazkur marosimda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedراس dotsenti, taniqli dramaturg Qo‘chqor Norqobil “Yilning eng yaxshi dramaturgi” nominatsiyasi g‘olibi deb topildi.

Ushbu mukofot hamkasbimizning milliy dramaturgiya rivojiga qo‘shayotgan salmoqli hissasi, samarali ijodiy faoliyati hamda yosh avlodni tarbiyalash yo‘lidagi ko‘p yillik mehnatlarining munosib e‘tirofi bo‘ldi.

Shu munosabat bilan, institutimiz jamoasi va o‘zim nomimdan Qo‘chqor Norqobilni ushbu e‘tirof bilan samimiy muborakbod etib, kelgusi ijodiy faoliyatida ulkan yutuqlar tilayman.

Nodirbek Sayfullayev,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori,
professor.

